

TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Maxmudova Zarnigor Maxsud qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi Koreys tili 2517-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Jumayeva Umida Abdurahim qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asr ta'lim jarayonida til kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada AI asosidagi adaptiv o'quv platformalari, chatbotlar va nutqni tanish tizimlarining talaffuz, grammatika, yozma va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, texnologik vositalardan foydalanishning metodik, psixologik va amaliy jihatlarini hamda tilshunoslik va ta'lim sohasidagi yangi yo'nalishlar bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellektning individual o'quv jarayonini optimallashtirish va til o'rganish sifatini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til kompetensiyasi, raqamli ta'lim, kompyuter lingvistikasi, til o'qitish metodikasi.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значимость технологий искусственного интеллекта (ИИ) в развитии языковой компетенции в образовательном процессе XXI века. Рассматривается эффективность адаптивных образовательных платформ на базе ИИ, чат-ботов и систем распознавания речи в развитии навыков произношения, грамматики, письма и аудирования. Также обсуждаются методические, психологические и практические аспекты использования технологических средств, а также интеграция с новыми направлениями лингвистики и образования. Статья демонстрирует возможности искусственного интеллекта в оптимизации индивидуального учебного процесса и повышении качества изучения языков в современной образовательной системе.

Ключевые слова: искусственный интеллект, языковая компетенция, цифровое образование, компьютерная лингвистика, методика преподавания языков.

Abstract: This article analyzes the role and significance of artificial intelligence (AI) technologies in developing language competence in the 21st-century educational process. The effectiveness of AI-based adaptive learning platforms, chatbots, and speech recognition systems in enhancing pronunciation, grammar, writing, and listening skills is examined. Methodological, psychological, and practical aspects of using technological tools, as well as their integration with new directions in linguistics and education, are also discussed. The article demonstrates the potential of artificial intelligence to optimize individualized learning processes and improve the quality of language learning in modern education systems.

Keywords: artificial intelligence, language competence, digital education, computational linguistics, language teaching methodology.

Kirish. Bugungi kunda, ya'ni XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, sun'iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalarining rivojlanishi til o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Chet tillarini o'rganish bugungi globallashuv sharoitida muhim kompetensiyalardan biridir. Shu sababli til kompetensiyasini rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash dolzarb masala hisoblanadi. Maqolaning

maqsadi — sun'iy intellekt texnologiyalarining til kompetensiyasini rivojlantirish jarayonidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning zamonaviy ta'lim tizimida samarali qo'llanilish imkoniyatlarini aniqlash.

Asosiy qism. Til kompetensiyasi — bu tilni tushunish, uni to'g'ri qo'llash va samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. Sun'iy intellekt texnologiyalari til kompetensiyasini rivojlantirishda to'rt xil asosiy ko'nikma orqali samarali ishlaydi. Bular: talaffuz va gapirish ko'nikmasi — speech-recognition (nutqni tushunish) texnologiyalari o'quvchining talaffuzini baholaydi va tuzatishlar taklif qiladi; grammatika va yozish ko'nikmasi — avtomatik tahlil vositalari yozma matndagi xatolarni aniqlaydi va takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rsatadi; o'qish ko'nikmasi — samaradorlikni oshiradi; tinglab tushunish va muloqot — interaktiv suhbat botlari talabalarni real muloqot sharoitiga o'rgatadi. Quyidagi iqtibos bu jarayonning natijadorligini yoritadi: «Yangi texnologiyalar o'quv jarayonini yanada shaxsiylashtiradi hamda talabalar faoliyatini oshiradi» [3.1-bet]. Bu yerda ta'kidlanadiki, sun'iy intellekt o'quvchilarning bilim darajasini aniqlab, ularga mos vazifalar taklif qiladi. Bu esa motivatsiyani oshiradi va til kompetensiyasini tezroq rivojlantiradi.

Til kompetensiyasi tushunchasi tilshunoslikda muhim nazariy kategoriyalardan biridir. Mashhur amerikalik tilshunos Noam Chomsky til kompetensiyasini insonning til tizimi haqidagi ichki bilimlari majmuasi sifatida ta'riflaydi [1.4-bet]. Keyinchalik bu tushuncha kommunikativ yondashuv asosida kengaytirilib, tilni real kommunikatsiya jarayonida qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga ola boshladi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga kirib kelishi til o'rganish metodikasida yangi yondashuvlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. AI asosidagi platformalar talabalarga individual o'quv trayektoriyasini yaratish, xatolarni avtomatik tahlil qilish va til ko'nikmalarini mustaqil rivojlantirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatini yaratadi. AI tizimlari o'quvchining bilim darajasi, o'rganish tezligi va xatolarini tahlil qilib, mos o'quv materiallarini taklif qiladi. Holmes, Bialik va Fadel sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi rolini tahlil qilib, AI o'quv jarayonini individuallashtirish orqali o'qitish samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi [4.37-bet]. Bu esa til o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida katta hajmdagi lingvistik ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin. Bu esa tilshunoslik tadqiqotlarining samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarining rivojlanishi tilshunoslik fanining yangi yo'nalishlarini shakllantirdi. Jumladan: kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi va avtomatik tarjima tizimlari. Tilshunos olim David Crystal raqamli texnologiyalar til o'rganish usullarini tubdan o'zgartirganini ta'kidlaydi [1-122]. AI texnologiyalari yordamida katta hajmdagi matnlarni tez tahlil qilish mumkin bo'lib, bu lingvistik tadqiqotlarning sifatini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari til kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. AI asosidagi platformalar til o'rganish jarayonini individuallashtirish, interaktiv mashqlarni taklif qilish va tezkor baholash imkoniyatini yaratadi. O'zbekistonning ham ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish yanada kengayib, til o'qitish metodikasining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge: MIT Press. —4-bet.
2. Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. London: Routledge. —122-bet.
3. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign. —37-bet.
4. Tukmirzaeva A., Kosmurov A. (2025). Искусственный интеллект и персонализированное обучение. — jurnal maqolasi—1-bet.